

Limon daraxti virusli va zamburug'li kasalliklarining oldini oluvchi "BIOMIX" universal biologik vositasi

O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti olimlari tomonidan intensiv bog'lar va issiqxona sharoitida yetishtirilayotgan limon daraxti virusli va zamburug'li kasalliklarining oldini oluvchi "BIOMIX" universal biologik vositasi yaratildi.



"BIOMIX" tarkibida foydali bakteriya hujayrasi va undan olingan qator biologik faol moddalar mavjud bo'lib, o'simlik immunitetini hosil qiluvchi qator biokimyoviy jarayonlarni tezlashtirib yuboradi. "BIOMIX" ta'sirida o'simliklarda fitoaleksinlar (kasallikdan himoya qiluvchi modda) va indol birikmalari (o'stiruvchi gormon) sintezi keskin kuchayib kasallikka chalinishi kamayadi.

Hozirda O'zbekistonda eng ko'p tarqalgan kasalliklar aynan intensiv bog'lar va limon daraxtlari barglarining qovjirab qolishi, barg sirtida turli dog'larning hosil bo'lishi, mevalarning chirishi hisoblanadi. Ayniqsa, mahalliy iqlim sharoitlarida moslashishi qiyin kechadigan intensiv bog'larda zamburug' yoki virusli kasalliklar juda ko'p uchramoqda. Buning asosiy sababi, mahalliy sharoitlarga moslasha olmayotgan intensiv navlar immunitetining past bo'lishidir. Shu bilan birga, intensiv navlar hujayra va to'qimalarida yuqorida keltirilgan fiziologik faol moddalarning kam hosil bo'lishi bilan ham izohlanadi.

"BIOMIX" aynan shu muammolarning yechimida qo'llanilishi mumkin: ko'chat navlari hujayra va to'qimalarida fiziologik faol moddalar sintezi kuchayadi, o'sishi va rivojlanishi tezlashadi, hosildorligi ortadi. Shuningdek, mevalar yirik ko'rinishda bo'ladi. "BIOMIX" vositasi qo'llanganda kasalliklarga qarshi qo'llaniladigan kimyoviy preparatlar (fungitsidlar, insektitsidlar)ga hojat qolmaydi, mineral o'g'itlar sarfi ham keskin kamayadi.

“BIOMIX” biologik vositasi olma, gilos, limon kabi daraxtlarning barglari butun vegetatsiya davrida sog‘lom bo‘lishiga yordam beradi.

Institutning mazkur ishlanmasiga Kanadaning “Abbot” kompaniyasi tomonidan qiziqish bildirilgan bo‘lib, mahsulotni AQSh va Kanada bozorlariga chiqarish bo‘yicha muzokaralar olib borilmoqda. Kompaniya vakillari O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutiga tashrifi davomida “BIOMIX” biologik vositasining muqobil biotexnologiyasini Kanadada ham yo‘lga qo‘yish masalalarini kelishib olishgan.